



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал



№ 5/2 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки





AQLIY RIVOJLANISHDA NUQSONI BO`LGAN BOLALARING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tag`onova G.B.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasи o'qituvchisi*

Tayanch so`zlar: aqli zaiflik, bilish faoliyati, yordamchi maktab, potologik buzilishlar.

Ключевые слова: умственная отсталость, когнитивные функции, вспомогательная школа, патологические расстройства.

Key words: mental retardation, cognitive activity, auxiliary school, pathological disorders.

Резюме:

Aqli zaif bolalarda bilish faoliyatining oliv shakllarini yaxshi rivojlanmaganligi fikrlashning yuzakiligi, nutqni sekin rivojlanishi va sifat jihatidan o`ziga xosligi, xatti-xarakatini so`z orqali nazorat qilishni izdan chiqishi xissiy-irodaviy sohani to`laqonli emasligi kuzatiladi.

Резюме:

У умственно отсталых детей наблюдается недостаточное развитие высших форм познавательной деятельности, поверхностность мышления, медленное развитие и качественное своеобразие речи, нарушение контроля поведения через слово, неполноценность эмоционально-волевой сферы.

Summary:

Poor development of higher forms of cognitive activity in Mentally Retarded Children is observed in the superficiality of thinking, slow development of speech and qualitative specificity, the inability to trace the control of behavior through speech is not exhaustive of the hissio-volitional sphere.

Aqli zaiflik deganda me'yoriy ruhiy rivojlanishdan chetlashib, haqiqiy, aynan aqliy nuqsonlikka olib keluvchi holat tushuniladi. Bunday holat «aqli zaiflik» nomi bilan atala boshlandi. So`nggi yillarda aqli zaiflik mohiyatini tushuntirishda ma'lum ruhiy, kasalliklar emas, balki qobiliyatlarining rivojlanmasligi asosida kelib chiqadigan xulqning buzilishidir, deb ko'rsatish odad tusiga kirib qolmoqda. Shular asosida noto'g'ri holda «aqliy qoloqlik» tushunchasi kengaytirilib, unga pedagogik qarovsiz bolalar, ruhiy rivojlanishi sustplashgan bolalar, huquq-tartib normalarini buzuvchi bolalar ham kiritilinoqda.

Aqli zaiflikning mohiyatini nuqsonning moddiy asosi bilan bog'lab, bunga bosh miyaning organik buzilishini ko'rsatadilar. Boshqacha aytganda, aqli